



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 140-150 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

JAHON AMALIYOTIDA AGROKLASTER TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA YURITISH BO'YICHA TO'PLANGAN TAJRIBALAR TAHLILI



Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich

e.mail: sbx2112@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4076-0376>

Annotatsiya. Mazkur maqolada agroklastlar faoliyatini tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish borasida to'plangan xorijiy tajribalar tizimlashtirilgan va ulardan mahalliy sharoitlarda foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuasi, globallashuv, integratsiya, agroklastlar, milliy xo'jalik, sanoatlashtirish, qo'shilgan qiymat, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi turmush darajasi.

АНАЛИЗ НАКОПЛЕННОГО ОПЫТА ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ И ВЕДЕНИЯ АГРОКЛАСТЕРНОЙ СИСТЕМЫ В МИРОВОЙ ПРАКТИКЕ

Байжанов Сарсенгали Халмуратович

e.mail: sbx2112@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4076-0376>

Аннотация. В данной статье систематизированы накопленный зарубежный опыт по организации деятельности агрокластеров и повышению ее эффективности, а также изучены возможности их использования в местных условиях.

Ключевые слова: сельское хозяйство, агропромышленный комплекс, глобализация, интеграция, агрокластер, национальная экономика, индустриализация, добавленная стоимость, продовольственная безопасность, уровень жизни населения.

ANALYSIS OF THE ACCUMULATED EXPERIENCE OF EFFECTIVE ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF AN AGRO CLUSTER SYSTEM IN WORLD PRACTICE

Bayjanov Sarsengaliy Khalmuratovich

e.mail: sbx2112@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4076-0376>

Annotation. This article systematizes the accumulated foreign experience in organizing the activities of agro-clusters and improving its efficiency, as well as examines the possibilities of their use in local conditions.

Keywords: agriculture, agro-industrial complex, globalization, integration, agro-cluster, national economy, industrialization, value added, food security, standard of living of the population.

Kirish. Globallashuv va davom etayotgan integratsiya jarayonlari sharoitida agrosanoat majmuasini klasterlashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishning samarali va ayni chog'da sinalgan usullaridan biri - bu tashkilotni klasterlashtirish hisoblanadi. Hozirgi bosqichda jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu ko'p jihatdan mamlakatlar milliy xo'jaligining raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Shu bois, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida amaliy iqtisodiy faoliyatda yangi bilim va innovatsiyalardan keng miqyosda foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda uni amalga oshirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri klasterlarni yaratish hisoblanadi.

Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish agrosanoat majmuining muhim muammolaridan biri sanalgani holda, uning yechimi mintaqa aholisini oziq-ovqat bilan, sanoatni esa qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan ta'minlashda muhim o'rin egallovchi agrosanoat majmuining rivojlanish holatiga bog'liq. Shu sababli, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va hududlarning agrosanoat majmuasini boshqarish amaliyotida uning ijobiy variantlaridan foydalanish muayyan afzalliklarni ta'min etadi.

Adabiyotlar sharhi. T. Andersonning fikricha, odatda klaster tushunchasini quyidagi asosiy unsurlar va o'ziga xosliklar bilan bog'lash maqsadga muvofiq hisoblanadi (Andersson, 2004): geografik kontsentratsiya; ixtisoslashuv; murakkab tuzilma (klasterlar birgina tashkilotlardan tashkil topmasdan, aksincha u o'z ichiga davlat idoralari, ilmiy va ta'lim muassasalari, moliyaviy tuzilmalar, shuningdek hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli institutlar va shu kabilarni ham qamrab oladi); raqobat va klasterlar sub'yektlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarining o'zaro uyg'unligi; klasterning ichki dinamikasiga erishish uchun muhim bo'lgan omillar; klasterning hayotiylik tsikli; innovatsiyalar (klaster tarkibiga kiruvchi tashkilotlar odatda texnologik, tijorat yoki tashkiliy o'zgarishlar jarayonida ishtirok etadilar).

G.A. Yasheva klasterning quyidagi o'ziga xos belgilarini ajratib ko'rsatishni taklif qiladi (Yasheva, 2011):

klaster sub'yektlari muayyan bir geografik hudud doirasida joylashgan bo'lib, ular hajmi jihatidan sezilarli darajada farq qilishi va bir nechta yaqin shaharlar yoki bitta kichik hudud (viloyat)dan tortib, butun bir mamlakat va hattoki, bir nechta mamlakatlar hududini o'zi ichiga qamrab olishi mumkin;

klaster sub'yektlari o'rtasida (shu jumladan norasmiy) uzviy aloqalar, shu bilan bir qatorda, klaster sub'yektlari va mahalliy davlat organlari o'rtasida hamkorlik munosabatlarining yo'lga qo'yilganligi;

klasterning o'z ichki tuzilmasiga ega ekanligi, uning sub'yektlari o'rtasida gorizontaal va vertikal aloqalarning mavjudligi;

klaster sub'yektlari sanaluvchi alohida korxonalar va tashkilotlar, umuman olganda klasterning raqobatbardoshligini oshirish, shu asosda hudud va mamlakat milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishni ko'zda tutuvchi yagona maqsadning mavjudligi;

bir tomondan, hamkorlik munosabatlari, boshqa tomondan esa, klaster sub'yektlari o'rtasidagi raqobatning o'zaro hamohangligi;

klaster sub'yektlarini o'zaro bir-birini to'ldiruvchi munosabatlar bog'lab turadi;

“asosiy mahsulot”ning mavjudligi;

klasterning “o'zagi” hisoblanuvchi ilmiy-tadqiqot yoki ilmiy va ta'lim markazlari (universitet, standartlashtirish agentligi, turli xil ilmiy uyushmalar, biznes maktab, texnopark va boshqalar) atrofida klaster sub'yektlarining mujassamlashuvi.

BMTning “Firmalarning innovatsion samaradorligini oshirish: siyosiy imkoniyatlar va amaliy vositalar” hisobotida qayd etilishicha, innovatsion klaster innovatsiyalarni yaratishga hissa qo'shadigan tashkilotlar, ularning yetkazib beruvchi va iste'molchilari, ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin aloqalar tizimidan tashkil topgan tuzilmani ifoda etadi. Klaster bir-biri o'zaro bilan hamkorlik qiladigan va raqobatlashadigan tashkilotlarni birlashtiradi. Tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar vertikal va gorizontol tavsifga ega bo'lishi mumkin.

Klasterlar quyidagi sabab va omillar bois, ko'proq yangiliklarni yaratish va joriy qilishga moyil, deb hisoblanadi (Markov, 2006):

klasterga a'zo tashkilotlar xaridor va mijozlarning ehtiyojlariga yetarlicha va tez javob bera oladilar;

klasterga a'zolik tashkilotlar tomonidan iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida qo'llaniluvchi yangi texnologiyalardan foydalanishni osonlashtiradi;

innovatsion jarayonlarga ta'minotchi va iste'molchilar, shuningdek boshqa tarmoq tashkilotlari ham kiritiladi;

firmalar o'rtasida kooperatsion aloqalarning rivojlanishi hisobiga ITTKIilarini amalga oshirishga doir xarajatlar pasayadi;

klasterda tashkilotlar doimiy tarzda raqobat bosimida bo'ladilar, bu esa o'z navbatida, o'z xo'jalik faoliyatini o'xshash tashkilotlar faoliyati bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

G. A.Yashevaning tak'kidlashicha, xorij tajribasi klaster tuzilmalarining xilma-xilligini ko'rsatadi, bunda ularning unsurlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, masalan (Yasheva, 2009): qiymat zanjirida bir-biriga bog'langan mahsulotlar; mahsulot va iqtisodiyot sektorlari; o'zaro bog'liq firmalar, ta'minotchilar, iste'molchilar; iqtisodiyot sektorlari; hukumat idoralari, tadbirkorlik sub'yektlari, muassasalar; ishlab chiqarish korxonalar, xizmat ko'rsatish korxonalar, davlat tuzilmalari va konsalting firmalari, hukumat idoralari, uyushmalar; mahsulotlar, ishlab chiqaruvchilar, ta'lim, ilmiy-tadqiqot, savdo tashkilotlari, davlat agentliklari, boshqa klasterlar; maxsus resurslar, ixtisoslashgan xizmatlar, turdosh tarmoqlar, asosiy mahsulotlar, iste'molchilar; ta'minotchilar, ishlab chiqaruvchilar, xaridorlar.

M. P. Voynarenko klaster tuzilmasida 3 ta o'zaro bog'liq sektorlarni ajratib ko'rsatishni taklif qiladi (Voynarenko, 2011):

biznes: tadbirkorlik tuzilmalari, jamiyatlar, tijorat banklari;

hukumat: mahalliy hokimiyat idoralari, soliq ma'murchiligi, tartibga soluvchi tuzilmalar;

institutlar: universitet va ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari, savdo-sanoat palatasi.

G. A. Yasheva ham, klasterning 3 tuzilmaviy unsurlarini ajratib ko'rsatadi (Yasheva, 2009):

ishlab chiqaruvchilar, bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar, resurslar va xizmatlar yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, xaridorlar hamda ilmiy-ma'rifiy markazni o'z ichiga olgan "biznes" unsuri (klasterning "o'zagi");

universitet, biznes maktab, turli xil uyushma, savdo-sanoat palatasi va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi "mahalliy muassasalar" unsuri;

davlat tashkilotlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z ichiga oluvchi, "davlat va hududiy boshqaruv organlari" unsuri.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq xo'jaligida kooperatsion aloqalarni rivojlantirish asnosida agroklastarlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yishning xorijiy tajribalarini o'rganish va ulardan mahalliy sharoitlarda foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilishda ilmiy bilishning induksiya va deduktsiya, analiz va sintez, qiyoslash, guruhlash usullaridan keng foydalaniladi. Xususan, tadqiqot jarayonida agroklastarlarni tashkil etishning xorijiy tajribalari mamlakatlar kesimida guruhlanadi, ular tasnif belgilari bo'yicha tasniflanadi. Tadqiqot so'ngida mahalliy sharoitda qo'llash katta samara berishi mumkin bo'lgan jihatlar ajratib olinadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy klasterlarni yaratish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish katta iqtisodiy samara beradi. Bunga rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni klasterlash tajribasi alohida mintaqalar va umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda o'z samarasini berganligi yaqqol isbot hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish strategiyasining asosini klaster tashabbuslari va texnologiyalari orqali raqobatbardoshlikni oshirish tashkil qiladi.

G'arb mamlakatlarining klasterlashtirish borasidagi tajribasini o'rganish klasterlarni quyidagi tartibda tuzish mumkinligini ko'rsatadi:

- Yevropa modeli: muayyan bir hududda to'plangan maxsus marketing strategiyasiga ega turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi raqobatdosh korxonalar;

- Shimoliy Amerika modeli: hududiy xususiyatlarga asoslangan geografik joylashuv tamoyiligi muvofiq o'zaro bog'langan geografik mujassamlashgan kompaniyalar majmuasi;

- Osiyo modeli: iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yordamida ixtisoslashgan hududlarning vertikal integratsiyasi; bunda klasterlarni yaratishda davlat idoralari muhim rol o'ynaydi;

- Yapon modeli: yirik monopol korxonalar atrofida joylashgan va mazkur korxonalar ehtiyojlari uchun tovarlar, va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning mujassamlashishiga asoslangan klaster yaratish.

Bundan tashqari, klasterlashtirish kontseptsiyasining asoschilaridan biri sanaluvchi M. Enrayt tomonidan quyidagi modellar taklif qilinadi:

“- klaster siyosatining katalitik modeli, unda davlatning roli mintaqaviy klaster ishtirokchilari o‘rtasida vositachilik bilan cheklanadi;

- klaster siyosatini tashkil etishning qo‘llab-quvvatlovchi modeli, unda davlat vositachilik funksiyasi bilan birgalikda mintaqaviy klasterlarning rivojlanishini rag‘batlantirish borasida hududlar infratuzilmasiga sarmoya kiritadi;

- davlat mintaqaviy klasterlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish funksiyasini o‘z zimmasiga oluvchi direktiv model;

- mintaqaviy klasterlarni shakllantirish borasidagi barcha vazifalarni davlat zimmasiga yuklatilishini nazarda tutuvchi intervensionistik model.” (Enright,2000).

Mintaqaviy klasterlarni shakllantirish borasida xorijiy tajribani tahlil qilish, klasterlashtirish siyosatini amalga oshirishning ikkita asosiy - liberal va dirijistik modellari mavjudligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Klasterlashtirish siyosatining modellari

<i>No</i>	<i>Modellar</i>	<i>Mamlakatlar</i>	<i>Tavsifi</i>
1	Liberal	AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada	Klaster bozor organizmi sifatida qaraladi. Federal hukumatning asosiy vazifasi ularning tabiiy rivojlanishi borasidagi to‘siqlarni olib tashlashdan iborat
2	Dirijistik	Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Shvetsiya, Frantsiya, Finlyandiya va Sloveniya	Klasterlarni rivojlantirishda davlatning faol davlat siyosati muhim o‘rin tutadi

Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuni ta‘kidlash kerakki: "... klasterlashtirishning liberal strategiyasi an‘anaviy ravishda liberal iqtisodiy siyosat olib boruvchi AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanada kabi mamlakatlar uchun xos. O‘z navbatida mamlakat iqtisodiy hayotida faol ishtirok qiluvchi Frantsiya, Koreya, Singapur, Yaponiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Sloveniya kabi mamlakatlar uchun dirijistik strategiya xosdir" (Mantayev, 2012).

1-jadvalda klasterlashtirish borasidagi ikki asosiy, ya‘ni liberal va dirijistik modellar tavsifi keltirib o‘tilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, klasterlashtirishning liberal modeli erkin iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatlarga xos bo‘lib, bunda klasterlarni yaratish va ularning faoliyat yuritish jarayoniga davlatning minimal darajada aralashuvi kuzatiladi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlarida davlatning integratsiya jarayonlarini rag‘batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish, ularning tabiiy rivojlanishi borasidagi to‘siqlarni bartaraf etishga davlat o‘zining ustuvor vazifasi sifatida qaraydi. Klasterlarni rivojlantirishning liberal modelida klaster o‘ziga xos bozor mexanizmi sifatida ko‘riladi. Klasterlashtirish borasida dirijistik siyosat ustun bo‘lgan mamlakatlarda davlat rivojlanishning imtiyozli omillarini maqsadli ravishda yaratish, klasterlarning faoliyat

ko'rsatish va rivojlanish yo'nalishlarini tanlash va moliyalashtirish orqali integratsiya jarayonlarini shakllantirish jarayoniga faol tarzda aralashadi.

Shundan kelib chiqqan holda, davlat maqsadli ravishda klaster yaratish ko'zda tutilgan hududni tanlaydi va ushbu hududda zaruriy infratuzilmani yaratadi va klasterlarni rivojlantirish dasturlarini qisman moliyalashtiradi.

Yuqoridagilarga tayangan holda, klasterlashtirish modellari o'rtasida quyidagi o'ziga xos tafovutlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Ustuvorliklar. Davlat darajasidagi ustuvorliklar sifatida tarmoq ustuvorliklari va rivojlantirish ko'zda tutilgan klasterlar tanlab olinsa, klasterlashtirishning liberal modelida davlat bozor sharoitida tabiiy ravishda shakllangan klasterlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

2. Infratuzilma. Davlat mexanizmlari ko'magida dirijistlar tomonidan ustuvor klasterlarning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi borasida maqsadli tarzda infratuzilma yaratiladi: oliy va kasbiy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, temir yo'llar, avtomobil yo'llari va boshqalar. Klasterlashtirishning liberal modeli sharoitida davlat, oxirgi vaziyatda, hududiy klasterlarni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaratishga yordam beradi.

Klasterlashtirish siyosatining o'ziga xos jihatlariga alohida tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashning ustuvorligi, hudud tabiiy resurs salohiyatining sifati kabilar kiradi, bu mahalliy iqtisodiyot sharoitida hududiy klasterlarni shakllantirish borasida xususiy modellardan foydalanish zarurligini asoslashga imkon beradi.

Klasterlashtirish siyosati borasida xorijiy tajribani o'rganish, klasterlash-tirishni ikkita katta tarixiy davrga ajratish, ya'ni klasterlarning birinchi va ikkinchi avlodini farqlash imkonini beradi:

- birinchi avlod-bu klasterlarni aniqlashtirish, klasterlarni tashkil etuvchi korxonalar faoliyati, uni qo'llab-quvvatlash uchun davlat idoralarini yaratish va barcha turdagi klasterlarni rag'batlantirish bo'yicha umumiy strategiyani amalga oshirish borasida davlat tomonidan amalga oshiriluvchi hatti-harakatlar va chora-tadbirlar majmui. Ushbu davrda tadqiqotlarda iqtisodiyot sohasi olimlari, geograf olimlar, shuningdek, hududiy iqtisodiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ham muhim o'rin tutadi, ular fazoviy modellashtirish orqali klasterlarning turlari, yo'nalishlari va ularning tuzilmasini aniqlashtirishlari lozim bo'ladi. Klasterlashning dastlabki davri odatda, an'anaviy sanoatning rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Niderlandiya, Germaniya va Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

- ikkinchi avlod-bu mavjud klasterlarning asosi va tajribasiga asoslangan va har bir klasterlarni alohida ravishda rivojlantirish muammolarini hal qilishga individual yondashuvni talab qiladigan avloddir, chunki bunda davlat idoralari buyurtmachi, menejer, ishlab chiqarish jarayonining tashabbuskori va klaster tarkibiga kiruvchi mavjud korxonalarini moliyalashtirish manbai sifatida faoliyat ko'rsatadi. Klasterlashning ikkinchi davri sanoat, innovatsion texnologiyalar va xizmat ko'rsatish sohasidagi deyarli barcha tarmoqlar ushbu mamlakatlarda muayyan klasterlar tarkibiga kiritilgan Shveysariya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Avstriya, AQSh kabi yuqori turmush darajasiga ega bo'lgan mamlakatlarga mansub.

“Qo‘shma Shtatlarda mintaqaviy ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ratsionalizatsiya qilishning eng muhim tashkiliy va iqtisodiy tamoyili hisoblanadi. Buning uchun mamlakat hududi 10 ta yirik makroiqtisodiy hududlarga ajratilgan. Bunday hududlar orasida tabiiy iqlim shart-sharoitlarini tashkiliy, iqtisodiy va innovatsion afzalliklar bilan o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlay olgan hududlar jadal rivojlanish tendentsiyasiga ega ekanligini alohida qayd etib o‘tishimiz lozim”.

2-jadval

Klasterlashtirish borasida xorijiy mamlakatlar amaliyotining qiyosiy tahlili

<i>No</i>	<i>Mamlakat</i>	<i>Klasterlashtirish siyosati modeli</i>	<i>Qo‘llab-quvvatlash/ amalga oshirish shakllari</i>	<i>Ustuvor yo‘nalishlar</i>
1	AQSh	Liberal	Raqobatbardoshlik bo‘yicha milliy kengash, hamkorlik institutlari, strategik hamkorlik dasturlari	Elektr muhandislik, Aerokosmik sanoat, Avtomobilsozlik
2	Germaniya	Dirijistik	Erlarning federal dasturlari	Avtomobilsozlik, Biotexnologiyalar
3	Italiya	liberal	Sanoat okruglari	Tekstil, Mashinasozlik, Poyafzal, Telekommunikatsiya
4	Frantsiya	dirijistik	Hududlar rivojlanishini boshqarish bo‘yicha organlar Rejalashtirish bo‘yicha milliy agentlik	Mashinasozlik, Tekstil, Yog‘ochni qayta ishlash, Oziq-ovqat va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish
5	Finlyandiya	Dirijistik	Milliy sanoat strategiyasi	O‘rmon xo‘jaligi, Metallurgiya, Energetika, Telekommunikatsiya, Tibbiyot, Qurilish
6	Buyuk Britaniya	liberal	Istiqbolli texnologik dasturlar	Avtomobilsozlik, Elektronika, Kimyoviy vositalar, Tekstil Biznes xizmatlar
7	Xitoy	dirijistik	Milliy rivojlanish va	Axborot

			islohotlar bo'yicha komissiya	texnologiyalari Mikroelektronika, Biologiya fanlari
8	Kanada	liberal	Hududiy rivojlanish agentligi Milliy tadqiqot kengashi (Klasterlashtirish strategiyasi)	Biotexnologiyalar, Telekommunikatsiya, Vinochilik, Oziq-ovqat sanoati
9	Yaponiya	dirijistik	Sanoat klasterlarining rivojlanishini rag'batlantirish va barqarorligini ta'minlash bo'yicha markaziy tashkilot	Avtomobilsozlik
10	Avstriya	dirijistik	Innovatsion tadqiqot dasturlari (TIP) Avstriya ishbilarmonlik doiralari agentligi	Avtomobilsozlik, Sanoat, Xizmatlar sohasi, Ta'lim
11	Hindiston	dirijistik	Ilmiy-texnik rivojlanish Milliy dasturi	Dasturlar, Informatsion texnologiyalar, Farmatsevtika Elektrotexnika sanoati

Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

So'nggi yillarda taraqqiy etgan mamlakatlarning jahon xo'jaligida o'z mavqelarini tobora mustahkamlab borayotganliklari mazkur mamlakatlar milliy xo'jaliklarida klasterlashtirish amaliyotiga katta e'tibor qaratilishining yaqqol isboti hisoblanadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda, klasterlashtirish amaliyotining xorijiy tajribalarini o'zaro qiyoslashimiz mumkin (2-jadval).

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, integratsiya jarayonlari korxonalariga sinergiya samarasi bois o'z faoliyatini kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish jarayonining butun zanjiri (qishloq xo'jaligi xoldingi va kooperativlari) bo'ylab tarmoqlararo aloqalar bo'yicha o'zaro bog'langan mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va sotish bilan shug'ullanadigan korxonalarining integratsiyasi tufayli rivojlangan mamlakatlar agrosanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishdi.

Rivojlangan mamlakatlar va o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy texnologiyalarni yaratish faqat integratsiya jarayonlari, shu jumladan klasterlarni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu ilg'or tajriba, ayniqsa, o'tish iqtisodiyotiga ega va klasterlar endigina shakllanayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'ta muhim hisoblanadi.

O'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan aksariyat mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy klasterlarni shakllantirish borasida integratsiya jarayonlarining

rivojlanishi alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda sobiq ittifoq mamlakatlarining hududlarda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish tajribasi juda muhimdir.

3-jadval

Klasterlashtirishning xorijiy tajribasi va ularni mahalliy agrosanoat majmuasiga moslashtirish istiqbollari

<i>Mamlakat</i>	<i>Klasterlashtirish tajribasining mazmuni</i>	<i>O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari</i>
AQSh	Jahon narxlarining pasayishi sharoitida eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermerlarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash	Jahon bozorlarida narxlarining pasayishi sharoitida eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermerlarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash
Qozog'iston	"Ontustik" EIZda paxta-to'qimachilik klasterini yaratishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan keng foydalanish
Ispaniya, Gretsiya	An'anaviy ishlab chiqarishlarning yuqori darajada rivojlanganligiga asoslangan birinchi avlod klasterlashtirish siyosati	Davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosatini muvofiqlashtirish
EI	Mumkin bo'lgan tijorat xatarlarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni amalga oshirish fondlarini yaratish	ASMda venchurli moliyalashtirish tizimini rag'batlantirish
	Ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini maqsadli dotatsiyalash	ITTKI xarajatlarini soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlash
	Ssudalar berish, shu jumladan foizsiz (Shvetsiya); tovar ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiyasi	Matlubot kooperativlarini rag'batlantirish
	Ilmiy-tadqiqot va innovatsion xarajatlarga soliqlarni qisqartirish	Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi markazlar faoliyatini rag'batlantirish
Xitoy	Fermerlar va eksportyorlarni imtiyozli soliqqa tortish	Dehqon va fermer xo'jaliklarini ijtimoiy fondlarga ajratmalardan ozod qilish
	Tashqi savdoni tartibga solish	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari-oziq-ovqat mahsulotlari eksportyorlariga QQSni qaytarib berish
Yaponiya	Kichik korxonalar aslida yirik ishlab chiqaruvchi -monopolist korxonaga atrofida mujassamlashadi.	Ustuvorliklar-eksportni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirishda import o'rnini bosishga e'tibor qaratish

	Bir qishloq-bitta mahsulot tamoyilini amalda qo'llash	"Bir qishloq - bitta mahsulot" yondashuvining amalga oshirilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini an'anaviy va yangi ichki va tashqi bozorlarga keng miqyosda yetkazib berishni yo'lga qo'yish imkonini beradi
--	---	--

Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Klasterlashtirish tamoyillari ilg'or xorijiy tajribani kelib chiqqan holda, mintaqada agrosanoat klasterlarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini amalga oshirishga hissa qo'shgan holda, mamlakat hududlarining tabiiy resurs salohiyatini iqtisodiy baholash asosida agrosanoat majmuasining integratsiya jarayonlari va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda mamlakat hududlarida agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning kontseptual modelini ishlab chiqishni talab qiladi.

Klasterlashning xorijiy tajribasi va ularni O'zbekistonning agrosanoat majmuasiga moslashtirish istiqbollari 4-jadvalda keltirilgan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, agrosanoat majmuida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida xorijiy tajribani tahlil qilish va o'rganish shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarini klasterlashtirish tendentsiyalari ularning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashning ob'yektiv zarurati bilan bog'liq. Ko'pgina mamlakatlarda davlat siyosati bozor sub'yektlarining o'zaro manfaatli hamkorlikka tayyorlik darajasini hisobga olgan holda klasterlashtirish jarayonlarini rag'batlantirishga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, taraqqiy etgan mamlakatlar innovatsion jarayonlarni faollashtirish borasida klaster yondashuvining afzalliklaridan foydalanishga harakat qilayotgani, rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya jarayonlarini faollashtirishda klasterlashtirish amaliyotidan ko'proq manfaatdor ekanligi oydinlashadi, biroq, ikkala holatda ham davlatning o'rni shakllanayotgan klasterlarning barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun infratuzilmani ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The Cluster Policies Whitebook [Electronic resource] / T. Andersson [et al.]. – Malmö : IKED, 2004. – Mode of access: <http://led.co.za/sites/led.co.za/files/documents/155.pdf>. – Date of access: 10.12.2011. P.13.

2. Яшева, Г.А. Кластеры в повышении конкурентоспособности организаций химической и нефтехимической промышленности Республики Беларусь / Г.А. Яшева, Е.А. Костюченко // Социально-экономическое развитие организаций и регионов Беларуси: цели, приоритеты, механизмы структурных преобразований : материалы докладов Междунар. науч.-практ. конф. : в 2 ч. / ВГТУ. – Витебск, 2011. – Ч. 2. – С. 242.

3. Марков, Л.С. Кластеры: формализация взаимосвязей в неформализованных производственных структурах / Л.С. Марков, М.А. Ягольницер. – Новосибирск : ИЭОП СО РАН, 2006. – С.43.
4. Яшева, Г.А. Кластерная концепция повышения конкурентоспособности предприятий в контексте сетевого сотрудничества и государственно-частного партнерства / Г.А. Яшева. – Витебск : ВГТУ, 2009. – С.17.
5. Solvell, O. The Cluster Initiative Greenbook / O. Solvell, G. Lindqvist, C. Ketels. – Stockholm, 2003. <http://www.cluster-research.org/dldocs/GreenbookSep03.pdf>. – Date of access: 19.11.2011. P.18.
6. Войнаренко, М.П. Кластерные технологии в системе развития предпринимательства, интеграции и привлечения инвестиций [Электронный ресурс] / М.П. Войнаренко // Social Aspects and Financing of Industrial Restructuring : regional forum, Moscow, 26 and 27 Nov. 2003. – Режим доступа: www.unecsc.org/ie/wp8/documents/voynarenko.pdf. – Дата доступа: 26.01.2012.
7. Enright M. J. Survey on the characterization of regional clusters: initial results. Working Paper / Institute of Economics and Business Strategy. Hong Kong ; Barcelona, Spain : The Competitiveness Institute, 2000. 22 p.
8. Мангаева Э. И., Куркудинова Е. В. Мировой опыт кластерной модели развития // УЭКС. 2012. №2 (38).
9. Сазонов С.П. К вопросу о государственно-частном партнерстве // Известия Волгоградского государственного технического университета. 2011. № 14. С. 19–21.
10. Рассадина А.К. Роль кластеров в современной экономике: зарубежный опыт Вестник Московского университета. Серия 6: Экономика. - М., 2014. - № 5. - С.85-101.
11. Нурмухаммидова М. Х. и др. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРИНИҲ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ //ТА'ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 401-417.
12. Абдувохидов А., Расулов С. СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИҲ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 4. – С. 366-376.
13. Абдувахидов А. А. и др. АГРАР СЕКТОРДА ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИҲ ЙЎЛЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 9-12.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

